E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

TIBBIYOT SOHASIDA INGLIZ TILI O`QITUVCHILARI SHAXSIDA PEDAGOGIK MAHORATNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Maxmudova Gulchehra

Andijon Davlat Tibbiyot Instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik mahoratning mohiyati, zaruriyati, egallash yo‘llari, faoliyat davomida pedagogik mahoratni shakllanish qirralari, yo‘llari mazmuni ochib berilgan. Hususan, tibbiyot oliy o’quv yurtlari uchun alohida ko’rsatmalar berildi.

Kalit so‘zlar: Pedagog, mahorat, zaruriyat, metod.

KIRISH

O‘qituvchida pedagogik mahoratni shakllantirish uchun avvalo pedagogik ishni ilmiy asosda tashkil qilish lozim. Buning uchun o‘qituvchining istak va qiziqishlarini hisobga olish, uning intilishi va boshqa tashqi omillarini bir – biriga uyg‘unlashtirib, kasbi va shaxsining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda faolligini oshirishni nazarda tutish kerak. Bu hol tinmay izlanishlar, kuzatishlar, tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish va xulosalar chiqarish lozimligini talab qiladi. Ilmiy pedagogik ta’limot, o‘tmish ajdodlarimizning tajribasi va ta’lim muassasasining amaliy faoliyati shundan dalolat bermoqdaki, kasbiy mohirlik, muntazam ilm olish bilan shug‘ullanish, mashq qilish, takrorlash, xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalar asosida ish olib borish orqali qo‘lga kiritiladi… Pedagogik mahorat avvalo falsafiy, pedagogik, psixologik, metodik bilimlar, o‘quv predmeti bo‘yicha keng va chuqur ma’lumotlarga ega bo‘lish va ularni takomillashtirib borish orqali shakllanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

—Pedagogik mahorat fani pedagogik fanlar tizimida kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlash va takomillashtirish fani sifatida maydonga keladi. Zero, —Pedagogik mahorat - bu pedagogik faoliyatni ustalik bilan boshqarishni o‘rgatuvchi fandir. Shunday ekan, kasbiy – pedagogik mohirlik pedagogik – psixologik tayyorgarlikda, o‘qituvchi – tarbiyachining ta’lim, tarbiya, ma’lumot tushunchalarining mohiyat – mazmunini, shaxs psixologiyasini, uning biologik shartlangan xususiyatlari (nerv tizimi, temperament, layoqat-qobiliyatini, xarakterlarini bilish jarayonlari (sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol)ni, emotsional irodaviy xususiyatlar (hissiyot, emotsiya, irodalari)ni, ijtimoiy yo‘nalgan xususiyatlari (ehtiyoj, qiziqish)ni, orttirilgan kasbiy xususiyatlar (bilim, ko‘nikma, malaka, odatlar)ni o‘rganib, anglab olish asosida shakllanib boradi. Pedagogik mahorat fani esa qayd etilgan xususiyatlarning o‘z mohiyatidan kelib chiqib ularni amalda qo‘llash yo‘llarini o‘rgatadi. Shu asosda ta’lim –tarbiya jarayonini to‘g‘ri, aniq tashkil qilish, o‘zlashtirish imkoniyatlaridan aniq foydalanish, shart-sharoitlarini yaratish imkoni tug‘iladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O‘qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirishning birinchi sharti faoliyatdir [3]. Pedagogik mahoratni egallash va takomillashtirishda faoliyat yetakchi omildir. Zero, mehnat, bilish, mahorat, ijod Inson hayoti va faoliyatining bosh mezoni. Bu mezon kundalik ish, faoliyat orqali amalga oshiriladi. Mehnat qilish, izlanish jarayonida, ya’ni amaliyot jarayonida yutuqlar qo‘lga kiritiladi, mahoratga erishiladi.

Pedagogik faoliyat talaba – yoshlarga ta’lim - tarbiya berish jarayonida ularga ta’sir ko‘rsatish bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi [5]. Natijada talabalarga bilim beriladi, ularning shaxsiy sifatlari tarbiyalanadi, psixologik xususiyatlari rivojlantiriladi [6]. Bunda esa talaba yetuk mutaxassis sifatida kamol topa boradi. Shuning uchun kasbiy faoliyat jarayonida pedagog,

ya'ni o'qituvchi- tarbiyachi, tashkil qiluvchi, yo'l – yo'riq ko'rsatuvchi, targ'ibot – tashviqot yurituvchi, ma'lumot – axborot to'plovchi va yetkazuvchi, shaxsiy xususiyatlarini va kasbiy mahoratini omillashtiruvchi shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishi lozim. Bularning barchasi bevosita va bilvosita pedagogik mahoratning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarga asoslanib, pedagogik mahorat faoliyat jarayonida shakllanadi va takomillashib boradi deb aytish mumkin. U ishbilarmonlik, zukkolik, layoqat va zehn vositasida taraqiy etadi. Shunga asoslanib, «Faoliyat dunyoni o'zlashtirishning birinchi shartidir‖,-deb aytish mumkin. Ko'rib o'tganimizdek pedagogik mahoratning asosiy ob'ekti – inson, uning aql – idroki, irodasi, ishonchi, tafakkuri, shuuridir. Bular yuksak darajada bo'lishi, ilmga, uni egallaganlik darajasiga bog'liq. Ilm esa tinimsiz mehnat, mashaqqat va azob – uqubatlar orqali qo'lga kiritiladi. Shuningdek pedagogik mahorat ham faoliyat, mehnat, o'z malakasi ustida muttasil ishlash yordamida shakllanadi. Shunday ekan, «Pedagogik mahorat» fanining pedagogik – psixologik fanlar tizimida mavqei baland. Zero, pedagogik mahoratsiz ta'lim – tarbiya, ya'ni pedagogik jarayon muvaffaqiyatini ta'minlab bo'lmaydi. Bu esa pedagogik mahoratni egallash, har bir talaba, o'qituvchi, tarbiyachi uchun zaruriy shart degani demakdir.

Pedagogik faoliyat qirralari:

Bilimdonlik:

- o'qitadigan fanini puxta bilishi;
- notiqlik san'atiga (o'quv materialini tushunarli va ravon tilda bayon qila olish malakasiga) ega bo'lishi;
- bilimlarni gumanitarlashtira olishi;
- talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tahlil qila olishi va ularni baholay olishi;
- bilimlarni uzluksiz mustaqil egallab borishi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xullas, kasbiy mahorat har bir davr uchun ham muhim pedagogik hodisa bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Pedagogik mahoratni takomillashtirishning istiqboli, avvalo, falsafiy, pedagogik, psixologik, fiziologik bilimlarni egallashi, o'quv predmeti bo'yicha keng, chuqur va mukammal ma'lumotlarga ega bo'lish, ularni ijodiy o'rganib o'z faoliyatiga muntazam tadbiq etish hamda nazariya bilan amaliyotning uzviy bog'liqligida olib borish orqali hal etiladi. Chunonchi, pedagogik mahorat ma'lum zaruriy ma'lumotlarni egallash orqali takomillashadi. Darhaqiqat, pedagogik mahoratni takomillashtirish uchun, avvalo o'quv predmetining ilmiy – nazariy asoslari bilan qurollanish, uning metodologiyasini egallashni, ta'lim tarbiyaning davr talabidagi maqsad va vazifalarini tushunish va anglash, kompyuter savodxonligiga ega bo'lish, mustaqil bilim olish faoliyatini aniq rejalashtira olish, pedagogik taffakur egasi bo'lib, pedagogik texnikani egallash, ijtimoiy faollik va metodik madaniyatga ega bo'lish hamda boshqa ma'lumotlar kerak bo'ladi. Pedagogik faoliyatini boshlayotgan har bir yosh o'qituvchi, dastavval, o'z kasbiy mahoratini shakllantirish va takomillashtirish ustida g'amxo'rlik qilishi, bu yo'lda uchraydigan qiyinchiliklardan qo'rqmasligi, sarosimaga tushmasligi kerak bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –T.: 2016. 44-b.
2. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar / Ma'ruzalar matni. Tuzuvchilar: A.X.Qosimov, F.A.Holikova. – Toshkent: TATU, 2014.
3. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida. Toshkent: O'qituvchi,

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

2011.

4. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent: Oliy pedagogika instituti, 2013.

5. Suvonov O., Nurumbekova Ya. O‘qituvchi nutq madaniyati / O‘quv–uslubiy qo‘llanma. – Guliston: GulDU, 2010. – 102-bet.

6. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2015.

7. Рашидов, Д. (2023). Давлат-хусусий шерикликда таваккалчилик турлари. *Scienceweb academic papers collection*.

8. Muslimov N.A., Raximov Z.T., Hamidov J.A. Kasb ta’limi metodikasi. Darslik. Toshkent ―Innovatsion rivojlanish nashriyot- matbaa uyi‖, 2020. 282 b.

WORDLY
KNOWLEDGE